

## BILASIZMI?



### Bilasizmi?

Konstitutsiyamizning 39-moddasi:

“O’zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar.

Siyosiy partiyalarda, jamoat birlashmalarida, ommaviy harakatlarda, shuningdek davlat hokimiyati vakillik organlarida ozchilikni tashkil etuvchi muxolifatchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini hech kim kamsitishi mumkin emas”.

Fuqarolarning kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etishi eng asosiy siyosiy huquqlardan hisoblanadi.

Kasaba uyushmasi – fuqarolarning o’z faoliyati yoki o’qishi turi bo'yicha umumiylashtirilgan, o'mmaviy harakatlarda ishtirok etishi eng asosiy siyosiy huquqlardan hisoblanadi. Kasaba uyushmasi – fuqarolarning o’z faoliyati yoki o’qishi turi bo'yicha umumiylashtirilgan, o'mmaviy harakatlarda ishtirok etishi eng asosiy siyosiy huquqlardan hisoblanadi.

Siyosiy partiya – O’zbekiston fuqarolarining qarashlar, manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi asosida tuzilgan, davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini ro'yobga chiqarishga intiluvchi hamda o’z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi ko'ngilli birlashmasi.

Jamoat birlashmasi – o’z huquqlari, erkinliklarini hamda siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy rivojlanish, fan, madaniyat, ekologiya va hayotning boshqa sohalaridagi qonuniy manfaatlarini birgalikda ro'yobga chiqarish uchun birlashgan fuqarolarning xohish-irodalarini erkin bildirishlari natijasida vujudga kelgan ixtiyoriy tuzilma.

### **Xamdamov Javohirbek Sherzodbek o'g'li - Farg'onan shahar adliya bo'limi Davlat xizmatlari markazi katta mutaxassis**

#### **Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating**

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-08-15 19:28:06